

MEDIA DISKURSNING RAQAMLI TRANSFORMATSIIYASI VA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI

Baxtiyorova Ruxshona Askar qizi,
Filologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi
ruxshonabaxtiyorova006@gmail.com
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy raqamli kommunikatsiya muhitida shakllanayotgan diskursni lingvistik jihatdan tizimli tahlil qilishga qaratilgan. Raqamli mediadiskurs an'anaviy diskurs tushunchasining kengaytirilgan shakli bo'lib, u raqamli platformalar doirasida yuzaga keladigan kommunikativ tizimdir. Diskursning asosiy xususiyatlaridan biri axborot almashinuvining yuqori tezligidir. Ya'ni diskurs tahlili, medialingvistika, sotsiopragmatika va multimodal tahlil metodlari va metodologik yondashuvlar ko'rib chiqilib, ularning raqamli muhitga moslashuv imkoniyatlari aniqlanadi. Ushbu yondashuvlar raqamli matnlarni tahlil qilishda aniqlik, izchillik va kontekstual moslikni ta'minlab, tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshiradi.

Kalit so'zlar: *raqamli media diskurs, diskurs tahlili, medialingvistika, sotsiopragmatika, multimodal tahlil, metodologik yondashuv, kontekstual moslik.*

Abstract. This article aims to provide a systematic linguistic analysis of discourse emerging in the modern digital communication environment. Digital media discourse is an expanded form of the traditional discourse concept, which is a communicative system that occurs within digital platforms. One of the main features of discourse is the high speed of information exchange. That is, the methods and methodological approaches of discourse analysis, media linguistics, sociopragmatics, and multimodal analysis are reviewed, and their possibilities for adaptation to the digital environment are determined. These approaches ensure accuracy, consistency, and contextual relevance in the analysis of digital texts, increasing the reliability of research results.

Keywords: *digital media discourse, discourse analysis, media linguistics, sociopragmatics, multimodal analysis, methodological approach, contextual relevance.*

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatda tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xususan, internet tarmog‘i hamda turli raqamli platformalarning keng ko‘lamda ommalashuvi natijasida insonlar o‘rtasidagi muloqot shakllari, axborot almashinuvi mexanizmlari va ijtimoiy munosabatlar tizimi sezilarli darajada transformatsiyaga uchradi. Raqamli media diskurs deganda raqamli platformalarda shakllanuvchi til birliklari, matnlar, multimodal ifoda vositalari hamda ular bilan bog‘liq ijtimoiy-kommunikativ munosabatlar tizimi tushuniladi. Ushbu diskursning o‘ziga xosligi, avvalo, axborot almashinuvi tezligining yuqoriligi, multimodallik (matn, tasvir, audio va video komponentlarning integratsiyasi), interaktivlik, personalizatsiya va algoritmik filtratsiya kabi omillar bilan belgilanadi [1]. Raqamli media diskursining shakllanishi til tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, leksik darajada yangi birliklar va neologizmlar paydo bo‘lmoqda, grammatik strukturalar soddalashmoqda, nutqning ixcham shakllari keng tarqalmoqda.

Asosiy qism: Diskurs tahlili tilshunoslikda til birliklarini ularning real qo‘llanish jarayonida, ya’ni ijtimoiy, madaniy va kommunikativ kontekst bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganishga qaratilgan ilmiy yondashuv hisoblanadi. Raqamli media muhitida shakllanayotgan matnlar diskurs tahlilining dolzarb obyektiga aylanib, unda mujassam bo‘lgan ijtimoiy, ideologik va kommunikativ mazmunlarni ochib berishda muhim metodologik vosita sifatida xizmat qiladi.

Medialingvistika zamonaviy tilshunoslikning nisbatan yangi, ammo jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, til va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni tizimli ravishda o‘rganishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalish doirasida media makonida qo‘llanilayotgan til birliklari, ularning

funksional xususiyatlari, kommunikativ vazifalari hamda auditoriyaga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Medialingvistikaning asosiy e'tibori media nutqining o'ziga xos belgilarini – manipulyativlik, stilistik rang-baranglik, axborot seleksiyasi, konnotativ yuklama va intertekstual aloqalarni aniqlash va izohlashga qaratilgan [1].

Sotsiopragmatika tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, til birliklarining qo'llanishi va talqin qilinishida ijtimoiy kontekstning hal qiluvchi rolini o'rganadi. Ushbu yondashuv tilni faqat struktur tizim sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar, madaniy normalar va kommunikativ vaziyatlar bilan chambarchas bog'liq hodisa sifatida talqin etadi [1].

Multimodal tahlil zamonaviy lingvistika va kommunikatsiya nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda ma'no hosil bo'lish jarayoni faqat lingvistik birliklar bilan emas, balki turli semiotik resurslarning o'zaro integratsiyasi asosida o'rganiladi [1].

Turli metodlarning o'zaro integratsiyasi raqamli media diskursini kompleks o'rganishda yuqori ilmiy samaradorlikni ta'minlaydi, chunki har bir yondashuv nutq hodisasining alohida imkoniyatini yoritadi.

Natijalar va muhokama: Raqamli diskurs (digital discourse) tilshunoslikda 2000-yillarning boshlarida mustaqil tadqiqot obyekti sifatida shakllana boshladi. Kristal (2001) “Language and the Internet” asarida internet-muloqotning lingvistik xususiyatlarini tizimli ravishda o'rgandi va “netspeak” tushunchasini kiritdi. Unga ko'ra, netspeak – bu yozma va og'zaki muloqot shakllari o'rtasidagi til bo'lib, raqamli platformalarda yuzaga kelgan yangi kommunikativ vaziyatga moslashgan [2].

So'nggi yillarda tilshunoslik va kommunikatsiya tadqiqotlarida computer-mediated communication (CMC) va digital discourse (raqamli diskurs) atamalari markaziy tushunchalarga ega hisoblanadi. Herring (2013) nazariyasi asosida raqamli

diskurs quyidagi asosiy xususiyatlar bilan ajralib turadi: sinxron va asinxron muloqot rejimlari, geografik chegaralarning yo'qligi, yozma va multimodal muloqot. Tadqiqot jarayonida aniqlangan xususiyatlar foydalanuvchilarning interaktiv strategiyalari, multimodal kommunikatsiyaning kengayishi raqamli diskursni tahlil qilishda yangi metodologik yondashuvlarni qo'llash zaruratini ko'rsatadi [2].

Raqamli transformatsiya masalasi, O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida ham muhim ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Ularning yondashuviga ko'ra, raqamli transformatsiya – bu tashkilot faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etish orqali xizmatlar sifatini oshirish va kuchaytirishga qaratilgan. V. Sadiyev ta'kidlashicha, oliy ta'lim muassasasi transformatsiyasi oddiy yangilanish emas, balki uning butun faoliyat tizimini qayta tashkil etish jarayonidir. Bu jarayon lokal o'zgarishlardan farqli ravishda muassasaning missiyasi, vazifalari va boshqaruv shakllarini tubdan o'zgartiradi. Birinchidan, transformatsiya universitetning missiyasini kengaytiradi – u nafaqat ta'lim beruvchi, balki innovatsiyalar yaratuvchi va jamiyat rivojiga xizmat qiluvchi markazga aylanadi. Ikkinchidan, tashkiliy va boshqaruv tizimi zamonaviylashadi – moslashuvchan va samarali boshqaruv shakllari joriy etiladi. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar ta'lim va boshqaruv jarayonlarini yangilab, innovatsion rivojlanish uchun asos yaratadi [3].

Xulosa qilib aytganda, raqamli media diskursini kompleks o'rganish birgina metodologik yondashuv bilan cheklanib qolmasligi zarurligini ko'rsatadi. Diskurs tahlili, medialingvistika, sotsiopragmatika va multimodal tahlilning integrativ qo'llanilishi mazkur hodisaning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, kommunikativ va semiotik jihatlarini ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, raqamli media muhiti doimiy ravishda texnologik va kommunikativ jihatdan

murakkablashib borayotgani tufayli, metodologik yondashuvlarni ham doimiy yangilab borish, yangi vositalar va tahlil usullarini joriy etish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ashurmatova N. A., Abdumajidov A. A. Raqamli media diskursini o'rganishda lingvistik metodologiyalar: Nazariy va amaliy yondashuvlar. Молодые ученые. [Yosh olimlar] ilmiy-amaliy konferensiyasi, 3(14). 2025. –B.39–41.
2. Mamanazarova, G. I. Ingliz tilining raqamli diskursdagi strukturaviy transformatsiyasi. International Conference Pedagogical Reforms and Their Solutions, 15(1). 2026. –B.133.
3. Muzaffarova D. M. Raqamli transformatsiyani joriy qilish metodologiyasi. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari: Ilmiy elektron jurnal. TDIU “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi, 2(14). 2024. –B.54.
4. Mirzaxmedov, M. M. Raqamli transformatsiya tushunchasi, mohiyati va kichik korxonalar faoliyatidagi ahamiyati. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(5). 2025.